

**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar
va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
2019 yil yanvar-sentabr (dastlabki ma'lumot)

2019 yil yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyati bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1880,0 ming so'mni** (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 36,4 % ga o'sishni ta'minladi.

**O'tgan yilning mos davriga nisbatan mehnatning asosiy
ko'rsatkichlarining o'zgarishi, foizda**

**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilot
xodimlar soni va ish haqi fondi (2019 yil yanvar-sentabr; qishloq xo'jaligi
va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)**


	Korxonalar va tashkilotlar soni	135,0
yanvar- sentabr 2019 y	Xodimlar soni	101,9
	Ish haqi fondi	138,9
	O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi	136,4

**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilot
xodimlar soni va ish haqi fondi (2019 yil yanvar-sentabr; qishloq xo'jaligi
va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)**

	<i>Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik</i>	<i>Xodimlar soni, kishi</i>	<i>Ish haqi fondi, mln.so'm</i>	<i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm</i>
Viloyat bo'yicha - jami	3108	120792	2 043 757,9	1880,0
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	32	11154	268 334,3	2622,3
Qurilish	12	1368	22 503,7	1827,8
Savdo	26	2227	43 871,6	2188,9
Tashish va saqlash	7	2463	58 123,4	2622,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14	117	1 016,3	965,1
Axborot va aloqa	18	815	15 930,1	2171,8
Bank, sug'urta va vositachilik	30	3194	103 677,0	3606,7
Ta'lim	1170	57040	860 479,3	1676,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	70	22681	331 242,2	1622,7
San'atko'ngil ochish va dam olish	154	1679	21 076,3	1394,8
Boshqa faoliyat turlari	1575	18054	317 503,7	1937,4

Ish haqi. 2019 yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.


Ta'lim sohasida 1170 ta muassasada **57040** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 47,2 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **860 479,3** ming. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 42,1 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1676,2** ming so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 42,6 % ga o'sdi.



Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yil yanvar- sentabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Ta'lim sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahri - 123,9 %, Yangiariq tumani - 107,2 %, va Xonqa tumani - 104,0 % hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Shovot - 92,0 %, Yangibozor - 91,3 %, Gurlan - 89,1%, Qo'shko'pir - 86,6 %, hamda viloyatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda






Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2019 yil yanvar- sentabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Sanoat sohasi bo'yicha bir qator shahar va tumanlar o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Xazorasp tumani - 152,5% va Yangibozor tumani - 104,5 % hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, viloyatning ba'zi tumanlarida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Shovot - 72,5 %, Qo'shko'pir - 70,7 %, Gurlan - 69,2 % hamda Urganch - 56,1 % tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda






Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2019 yil yanvar- sentabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Urganch tumani 136,1 %, Qo'shko'pir tumani 115,1 % va Bog'ot tumani 109,7 % hissasiga to'g'ri kelgan..

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ba'zi tumanlarida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Yangiariq - 94,7 %, Xazorasp - 86,3 %, Yangibozor - 85,7 % hamda Shovot - 80,4 % tumanlarida kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda





**Qurilish sohasi bo`yicha o`rtacha oylik
nominal hisoblangan ish haqi
(2019 yil yanvar- sentabr; qishloq xo`jaligi
va
kichik tadbirkorlik sub`ektlaridan tashqari)**



O`rtacha oylik ish haqi, ming so`mda




Qurilish sohasidagi o`rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini ko`radigan bo`lsak, eng yuqori ko`rsatkich Xonqa tumanida -124,8% kuzatildi, shuningdek, viloyat darajasidan yuqori ko`rsatkichlar Urganch - 113,2 % shahrida kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba`zi tumanlari qurilish sohasidagi o`rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko`rsatkichi viloyat darajasidan past bo`ldi.

Qurilish sohasida viloyat ko`rsatkichidan sezilarli darajada past o`rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko`rsatkichi Xiva - 87,5 %, Urganch - 87,3 %, Bog`ot - 74,8 % hamda Qo`shko`pir - 68,3 % tumanlarida kuzatildi..


O`rtacha oylik ish haqi, ming so`mda





**Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2019 yil yanvar- sentabr; qishloq xo'jaligi va kichik
tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)**

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida 106,6 % ni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning ba'zi tumanlarida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Gurlan tumani 48,2 %, Yangiariq tumani 50,4 % Qo'shko'pir tumani 69,1% hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Xorazm viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-sentabr oylarida 2018 yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati ta'limda 42,6 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 40,7 %, qurilishda 30,2 %, axborot va aloqada 30,0 % va moliyaviy va sug'urta faoliyatida 29,2 % kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %
(2019 yil yanvar- sentabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)




Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, %)






Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, %)

2019




Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, %)

2019



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini shahar va tumanlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Urganch shahrida 2257,3 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 120,1 %), Xazorasp tumanida 2045,6 ming so'mni (108,8 %) tashkil etgan bo'lsa, Qo'shko'pir tumanida 1518,9 ming so'mni (80,8 %), Shovot tumanida 1556,7 ming so'mni (82,8%), Gurlan tumanida 1530,0 ming so'mni (81,4 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2019 yil yanvar-sentabr, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



**Xorazm viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2019 yil yanvar-sentabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)**

	2018 yil yanvar- sentabr	2019 yil yanvar- sentabr	O'sish sur'ati, %
Xorazm viloyati	1378,7	1880,0	136,4
Urganch sh.	1690,9	2257,3	133,5
Xiva sh.	1195,7	1654,7	138,4
tumanlar:			
Bog'ot	1175,9	1627,7	138,4
Gurlan	1154,7	1530,0	132,5
Qo'shko'pir	1185,7	1518,9	128,1
Urganch	1340,9	1857,0	138,5
Xazorasp	1464,5	2045,6	139,7
Xonqa	1244,8	1767,1	142,0
Xiva	1172,9	1635,8	139,5
Shovot	1087,7	1556,7	143,1
Yangiariq	1243,7	1738,7	139,8
Yangibozor	1118,0	1572,1	140,6

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2019 yil sentabr oyida 634,9 ming so'mni tashkil etgan,



Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-yanvardagi 47-sonli qaroriga binoan, mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirish kiritildi va 1,2,3-razryadlari koeffitsiyentlari oshirildi) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi
bo'limi**

Tel: (71) 230-87-81, 230-87-82